

TUPROQ BIZNING BEBAHO BOYLIGIMIZ

Hasanov Hayitmurod Abdirashit o'g'li

Yuldoshev Bahrom Baxtiyorovich

Termiz muhandislik-texnologiya instituti magistrantlari

Annotatsiya: Maqolada insonning tuproqqa ijobiy va salbiy ta'siri, ijobiy ta'siriga oid tuproq hosildorligini oshirish, yerlarning holatini yaxshilash, yashil o'simliklar ekish, ixotazorlar tashkil etish, tabiiy o'g'itlardan foydalanish va salbiy ta'siriga oid, shaharlar qurilishi, atrof-muhitning ifloslanishi, agrotexnik tadbirlarning talabga javob bermasligi, gidrotexnika tadbirlaridan noto'g'ri foydalanish, kimyoviy moddalardan me'yordan ortiq ishlatilishi, yaylovlarga chorva mollarini boqish, o'rmon va to'qaylarni kesib yuborish va hokazolar ta'siri oqibatida yerlar yaroqsiz holga kelishi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: Tuproq, ekologiya va atrof-muhitning ifloslanishi, resurs, yomg'ir chuvalchaglari, eroziya, litosfera, tabiatdagi va jamiyat, fizik-kimyoviy, mikro va mikroorganizmlar, oziq-ovqat.

Tuproq haqida umumiy tushuncha. Bundan bir necha milliard yillar ilgari yer qattiq tosh va qoyalardan iborat bo'lgan. Unga suv, shamollar, issiq va sovuq havo haroratlari ta'sir etib yemirilish jarayonida tuproqqa aylanib borgan. Hosil bo'lgan yerda yillar moboynida o'simliklar va hayvonlar paydo bo'la boshlagan. Tuproqlarning tabiatdagi va jamiyat hayotidagi ro'li g'oyat beqiyosdir. Tuproq organizmlar uchun hayot muhiti va ozuqa manbai hamda yashash makoni hisoblanadi. Demak, tuproq deb, unumdorlik xususiyatiga ega bo'lgan yer yuzasining ustki, g'ovak qatlamiga aytiladi. Tuproq tugaydigan va tiklanadigan resurslarga kiradi. Tuzilishiga ko'ra 3 asosiy qatlamga ajratiladi: 1- eng ustki gumus (chirindili) qatlam; 2-mineral va organik birikmalar to'planadigan gorizont; 3 –tuproq vujudga keladigan ona jinsi. Tuproqning har bir gorizonti organik va mineral birikmalar

aralashmasidan iborat. Tuproq tarixiy tarkib topgan murakkab, mustaqil tabiiy jism bo'lib o'zgaruvchidir. 1 gramm tuproqda 1 mln dan ortiq sodda hayvonlar va tuban o'simliklar uchraydi.

Ma'lumki, sog'lom unumdor tuproq 1 gektar yer maydonida 3-3,5 milliard tonna mikro va mikroorganizmlar bo'lib, ular 8-12 tonnani tashkil etadi. Bularga dala sichqonlari, tuproqda yashovchi xilma-xil hasharotlar, yomg'ir chuvalchaglari kabilar kiradi. Ayniqsa, yomg'ir chuvalchangining tuproq strukturasi yaxshilashdagi ro'li juda kattadir. Yomg'ir chuvalchangi yerda 1 metr chuqurlikga qadar “kanalchalar” qazib, ular orqali o'simlik ildizi tashqaridan nafas olishi va suv, oziq moddalar so'rilishini imkonini beradi. Ular ovqat hazm qilish organlari orqali yiliga 300-400 tonna tuproqni o'tkazib, tuproq unumdorligini oshiradi. Yomg'ir chuvalchangining yer unumdorligini oshirishdagi ahamiyatini hisobga olib AQSh va ba'zan G'arbiy Yevropa mamlakatlarida uni ko'paytirib sotuvchi maxsus fermalar ishlab turibdi. Bunday ishlar respublikamiz va viloyatimizda ham tashkil etilmoqda.

Inson paydo bo'libdiki, uning hayoti yer bilan bog'liq. Chunki u yer yashash makoni, tirikchilik manbai va ishlab chiqarish vositasi sifatida qabul qilgan. Yer yuzida turli qobiqlar o'rtasidagi aloqadorlik tuproq orqali amalga oshadi, tabiiy landshaftlarning asosi hisoblanadi, litosfera bilan atmosfera o'rtasida moddalarning o'zaro aloqasini sodir etadi. Tuproq xalqning bebaho tabiiy boyligi va insonning yashashi uchun zarur bo'lgan hayot manbaidir. Chunki inson yashashi uchun kerak bo'lgan oziq-ovqat energiyasining 88% ini tuproqdan, 10% ini o'rmon va o'tloqlardan, 2% ini okeandan olmoqda. Tuproqning kishilik jamiyati uchun ahamiyati shundaki, o'z-o'zidan tozalash xususiyatiga ega bo'lib, tabiatdagi iflos moddalarni biologik yo'l bilan tozalaydi va neytrallashtiradi.

Insonning tuproqqa ijobiy va salbiy ta'siri. Ijobiy ta'siriga tuproq hosildorligini oshirish, yerlarning holatini yaxshilash, yashil o'simliklar ekish, ixotazorlar tashkil etish, tabiiy o'g'itlardan foydalanish va hokazolar kiradi.

Salbiy ta'siriga, shaharlar qurilishi, atrof-muhitning ifloslanishi, agrotexnik tadbirlarning talabga javob bermasligi, gidrotexnika tadbirlarining noto'g'ri yo'lga qo'yilishi, kimyoviy moddalardan me'yordan ortiq ishlatilishi, yaylovlarga chorva

mollarini boqish, o'rmon va to'qaylarni kesib yuborish va hokazolar ta'siri oqibatida yerlar yaroqsiz holga keladi.

Insonning ta'siri ayniqsa sug'oriladigan yerlarda kuchli bo'lib, sug'orib ekin ekayotganda ilg'or agrotexnika qoidalariga rioya qilinsa, (sug'orish qoida va me'yorlariga rioya qilish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va b.q.) tuproqning holati, fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlari yaxshilanib, uning hosildorligi ortib boradi. Tabiatda shamol va suv ta'sirida tuproqning emirilishi yoki eroziyasi kuzatiladi. Lekin bugungi kunda kishilarning tuproqqa noto'g'ri munosabatda bo'lishi tufayli, ya'ni tik yerlarni noto'g'ri haydash, bostirib sug'orish, o'simliklarga noto'g'ri munosabatda bo'lishi, qayta sho'rlanishi, zaxarli kimyoviy moddalar solish va boshqalar tuproq eroziyasini vujudga keltirib chiqaradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, har kuni Yer yuzida eroziya natijasida 3500 gektar unumdor tuproqli yerlar ishdan chiqadi. Suv eroziyasi ko'proq tog' oldi va tog'li hududlarda, shamol erozmiyasi kuzatiladi.

Eroziya jarayonlarining oldini olish uchun o'simlik qoplamini tiklash, agrotexnik tadbirlarini to'g'ri olib borish, yashil himoya qalqonlarini ya'ni daraxtzorlarni bunyod qilish, gidrotexnik tadbirlarni rejali o'tkazish va boshqalar kiradi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning umumiy maydoni 28 mln ga yerlarni tashkil etsa, undan: 23 mln ga yaylovlar, 0,7 mln ga yer lalmikor va 4,2 mln ga sug'oriladigan yerlardan iborat.

I.A.Karimovning “O'zbekiston buyuk kelajak sari” asarida ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning hozirgi asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Unda, xususan quyidagilar ta'kidlanadi:

1. Tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish. Qishloq, o'rmon va boshqa xo'jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish. Havo va suv muhitini insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifloslanishini to'xtatish.

2. Qayta tiklanmaydigan zahiralarni qat'iy mezon asosida iste'mol qilgan holda ularning hamma turlaridan oqilona foydalanish.

3. Katta - katta hududiarda tabiiy zahiralardan foydalanishning aniq maqsadga qaratilgan iimiy asoslarini o'zlashtirish.

4. Jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish.

5. Shaharsozlik va tumanlarni rejalashtirishning ilmiy asoslangan, hozirgi zamon urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etish tizimini joriy etish yo'li bilan shaharlarda va boshqa aholi punktlarida yashash uchun qulay sharoitlar yaratish.

6. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish. Bundan ko'rinadiki, atrof muhit xususan tuproq qoplaminig ifloslanishiga olib keluvchi bir qator omillar davlat darajasida hal etilishi belgilangan. Tuproq qoplaminig ifloslanishi salbiy ta'sir qiluvchi va unga yot bo'lgan fizik, kimyoviy va biologik moddalarning qo'shilishi natijasida, tuproqda kechayotgan tabiiy modda va energiya almashinuvining buzilishi oqibatida ekotizimlarda salbiy o'zgarishlar yuz beradi. Yerlarning ifloslanishi ikki turda: tabiiy - vulqonlarning otilishi, yer qimirlashi, sel kelishi, sunamilar va shunga o'xshash tabiiy jarayon va hodisalar orqali, shuningdek, insonlarning xo'jalik faoliyati natijasida yuzaga keladi. Tuproqlarni kimyoviy ifloslanishida, bir necha omillar asosiy o'rin tutadi. Bu o'rinda insoniyat faoliyati bilan bog'liq holda vujudga keladigan kimyoviy ifloslanishlarni ta'kidlash o'rinlidir. Yer yuzi aholisi o'zining ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida tabiatga, xususan, tuproq qoplamiga bevosita va bilvosita ta'sir doirasini kengaytiradi. Biroq insoniyat ko'paygani sari atrof-muhitga, jumladan tuproq qoplamiga ta'siri yanada ortadi. Yangi - yangi sanoat korxonalarini barpo etadi, yerlarni o'zlashtiradi va umuman tabiiy yaralgan muhitga katta “ bosim ” bilan ta'sir qiladi, natijada tuproq qoplami kimyoviy ifloslanishining mashtabi kengayadi va ifloslanish turlari ortadi.

Tarixga nazar tashlasak, inson turli davrlarda yerga turlicha yondashgan va kimyoviy ifloslanishga o'zining ta'sirini o'tkazgan: bundan 1 min. yil avval kundalik ehtiyojini qondirish maqsadida tuproq qoplamiga ta'sir etish shakli bo'lmagan. 100 ming yil avval esa dastlabki mehnat qurollari vositasida tuproq qoplamiga juda

kuchsiz ta'sir etgan va tuproq qoplamining kimyoviy iflostanishi deyarli sezilmagan, XV asrga kelib inson faoliyati bir muncha ortgan. XX asr boshida esa dastlabki sanoat korxonalarini va qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalar qo'llanilishi natijasida tuproq qoplamining kimyoviy ifloslanishi kuzatilgan va tuproq qoplamiga sezilarli darajada ta'siri oshgan. XXI asr boshiga kelib vaziyat jiddiylashgan. Kimyoviy ifloslanishni tez va keng miqyosida tarqalishida faol ishtirok etuvchi transport turlari va ular bilan bog'liq jarayonlar natijasida tuproq qoplamining kimyoviy ifloslanishi bir qator salbiy holatlarga olib keldi. 10 Yillar davomida turli omillar ta'sirida kimyoviy ifloslangan tuproqlarni chuqur o'rganish, ularning tuproq xossalari va unumdorligiga ta'sir etish tendentsiya va mexanizmlarini ochib berish va qayta tiklash bugungi kunda har bir davlatning ustuvor vazifalari qatoriga qo'yilgan. Bu muammolar hal etilsagina tuproqlardan samarali foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak insonning tuproqqa bo'lgan ehtiyoji yil sayin ortmoqda, insonlarning tuproqqa bo'lgan ijobiy ta'siri, yerlarning holatini yaxshilashi, yashil o'simliklar ekishi, ixotazorlar tashkil etishi, tabiiy o'g'itlardan foydalanishi va salbiy ta'siriga, shaharlar qurilishi, atrof-muhitning ifloslanishi, agrotexnik tadbirlarning talabga javob bermasligi, gidrotexnika tadbirlaridan noto'g'ri foydalanishi, kimyoviy moddalardan me'yordan ortiq ishlatilishi, yaylovlarga chorva mollarini boqishi, o'rmon va to'qaylarni kesib yuborishi va hokazolar oqibatida yerlar yaroqsiz holga keladi. Shu munosabat ona yerimizni avaylab asrashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T. O'zbekiston, 1998.
2. Tuproqlarning ifloslanish muammolari va muhofaza qilish tadbirlari o'quv qo'llanma T.A.Abdraxmonov, Z.A.Jabbarov, M.F.Fahrutdinova Toshkent niversitet 2008.
3. Kosimov A.X. Axmedova G.J. Tabiatshunoslik fanidan ma'ruza matni. Toshkent, 2002.